



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 342 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchilarni intellektual rivojlantirishning psixologik omillari.....	22
<i>Ashurov Ramzidin Ramazonovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolaning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oila bilan ishlashning nazariy asoslari	27
<i>Jumanova Fatima Uralovna, Allaberganova Munisa Begimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning metodologik asoslari	32
<i>Jo'rayeva Nargiza Tairovna, Bekbergenova Yulduz Tanirbergen qizi</i>	
Faoliyatli yondashuv asosida maktabgacha 6-7 yoshli bolalarda nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	35
<i>Ziyodullayeva Mohirabonu Ikromjon qizi</i>	
Davlat ta'lim muassasalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari ...	39
<i>Xaybatullaeva Sojidxon Ziyatullayevna</i>	
Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishda integratsion yondashuv	42
<i>Kamoliddinov Mirzohid</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning samaradorligi	45
<i>Kamoliddinova Dilnoza Axmadilaxanovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish mexanizmlari.....	48
<i>Nurjanova Rayxan Urazbaevna</i>	
Sinf biologiya fanini o'qitishda TIMSS topshiriqlardan foydalanish metodikasi va baholash mezonlari	52
<i>Xaitboyeva Dilorom Rustam qizi</i>	
Qandli diabet tashxisli bemorlarda shaxs tuzilmasining emotsional komponentlari	56
<i>Sadikova Umida Botirovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda pedagogik diagnostikani amalga oshirishning natijaviyligi	60
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Qodirova Shaxnoza Saidazim qizi</i>	
Kasbiy imij shakllanishida psixologik jihatlarning tafovutlari	64
<i>Aminova Dilnoza Orifjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining jamoa bilan ishlash jarayonida yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish	69
<i>Abdiyeva Fazilat Fayzulla qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsi rivojlanishida psixologik moslashuvning tipik xususiyatlari	73
<i>Mirsaitova Guzal Baxodirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida variativ modellastirish asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarining qo'llanilishi	76
<i>Quvvatova Mohira Hikmatillayevna</i>	
Interfaol treninglar orqali o'qituvchilarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish tajribasi	79
<i>Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyani shakllantirishning ahamiyati.....	82
<i>Zulayxo Nazarova, Qarshiboyeva Muxlisa Ismatullo qizi</i>	
Ijodiy qobiliyatni o'stirishda pedagogik mahorat va innovatsion metodlar	85
<i>Mutallibova Odinaxon Mirzaolimjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olimpiadalarga tayyorlashda masalalar yechish texnologiyasi 11-sinf misolida	89
<i>Aslonov Xayrullo Shukrullo o'g'li</i>	



Bokschi qizlarni texnika taktikasini takomillashtirish.....	94
<i>Axmedov Latifjon G'ayrat o'g'li</i>	
Ixtisoslashtirilgan terminologiyaning asosiy lingvistik xususiyatlari	99
<i>Axmedova Dilnoza Anvarovna</i>	
Interfaol metodlar orqali zamonaviy darslarni tashkil etishning o'ziga xos tendensiyalari	102
<i>Bakirov Otabek Bo'ranovich</i>	
Boshqaruv psixologiyasi terminlarini tarjima qilishning metodologik muammolari	106
<i>D. J. Norboyeva</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalari ruhiyatiga virtual muhitning salbiy ta'siri	110
<i>Giyosov Ulug'bek Eshpulatovich, Turayeva Nigora Husniddin qizi</i>	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	113
<i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kognitiv qobiliyatlarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar	117
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i>	
Principles of Organising Autonomous Learning.....	121
<i>Khazratova Zukhra Mamaraimovna</i>	
Najot – ta'limda, najot-tarbiyada	124
<i>Mo'minova Manzura Mamasodiqjonovna</i>	
Educational Potential of Museum Pedagogy and Criteria for its Application in Developing Historical Thinking of Pre-Service History Teachers	127
<i>Niyozov Javlonbek</i>	
Landshaft dizayni vastasida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining estetik va kreativ ko'nikmalarini rivojlantirish	131
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna</i>	
Abdulla Avloniy pedagogik merosida shaxs psixologiyasi masalalari.....	134
<i>S. O. Mamarasulov, D. A. Egamberdiyeva</i>	
TBL metodini qo'llash orqali o'quvchilarning madaniyati va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish....	138
<i>Sodikova Oyshakhon Muxammadsodik</i>	
Pedagogik innovatsiyalarni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari.....	142
<i>Soliqova Barno Sodiq qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim magistratura talabalarining ijodiy faolligini rivojlantirish shart-sharoitlari	146
<i>Yarmatov Shermo'min Rahmatovich</i>	
Формирование готовности родителей детей старшего дошкольного возраста к выполнению воспитательной функции в семье.....	149
<i>Атаджанова Сохиба Талиповна</i>	
Redjio pedagogik yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	152
<i>Djamilova Nargiza Nuritdinovna, Otahonova Marjona</i>	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	155
<i>Kayumova Nazokat Rashitovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida chet tili o'qituvchilari va talabalar o'rtasidagi interaktsiyaning pedagogik samaradorligi va innovatsion mexanizmlari	163
<i>Eshonqulova Umida Xolmirzayevna</i>	
MTTlarda nutqni rivojlantirishga doir mashg'ulotlarda interfaol usullardan foydalanish texnologiyasi	168
<i>To'laboyeva Iqbolaxon Olimjonovna</i>	
Ta'lim jarayonidagi konfliktlar.....	173
<i>Abulova Mohigul Komiljonzoda</i>	
Talabalarining bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish	176
<i>Inomova Mahliyo Yusuf qizi</i>	

Shaxs tuzilmasida ma'naviy intellekt: nazariy-metodologik tahlil va psixologik interpretatsiya	179
<i>Mirxoliqova Charos Xabibullaevna</i>	
18-20 yoshli belbog'li kurashchilarning musobaqa oldi jismoniy tayyorgarliklari	183
<i>Muzafarov Muxammadali Maxsudovich</i>	
Talabalarda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanib kasbiy madaniyatini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar (boshlang'ich ta'limda tarbiya fani misolida)	187
<i>Yadgarova Surayyo</i>	
Maktab o'quvchilariga pedagogik ta'sir ko'rsatishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish	190
<i>Yo'ldoshova Shahlo Shukurullo qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy tahlili	194
<i>Yusupova Sanobar Odil qizi</i>	
Типология научного текста: от жанровой классификации к дискурсивной модели	197
<i>Бахтияр Катибжанович Саттаров</i>	
Взаимодействие педагога и семьи в профилактике и преодолении стресса у детей дошкольного возраста	201
<i>Г. С. Алиходжаева, Х. Рахимова</i>	
Условия эффективности инклюзивного образования	206
<i>Г. С. Алиходжаева, Л. О. Бекмуродова</i>	
Педагогическая готовность к обучению в школе детей билингов	211
<i>Г. С. Алиходжаева, Н. А. Ганиева</i>	
Педагогические условия формирования эмоционального интеллекта у дошкольников	216
<i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	
Milliy meros va musiqiy madaniyatning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni	219
<i>Zuhriddin Azizov</i>	
Госпитальная школа как пространство поддержки и развития ребёнка (на примере госпитальной школы при детской клиник Синсиннати, США)	222
<i>Муминов Р. Р., Хакимова Н. Х., Набиева Г. Г.</i>	
Интерактивные формы работы в процессе профориентации детей дошкольного возраста	227
<i>Н. Т. Жураева, С. М. Ахмеджанова</i>	
Samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashga oid yondashuvlar	231
<i>Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna</i>	
Поэтапное вовлечение детей с расстройствами аутистического спектра в дошкольное инклюзивное образование: комплексный анализ научно-теоретических и практических подходов	234
<i>Сабина Рагимова Ровшан кызы, Айсель Масимова Арастун кызы</i>	
Umumta'lim maktablarida fizika fanini o'qitish metodikasini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarishni takomillashtirish	245
<i>Allaniyazova Bibigul Sarsenbay qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslariga kreativ fikrlash asosida tayyorlash	248
<i>Botirova Jumagul Chori qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlarni o'qitish metodikasini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarishni takomillashtirish	254
<i>Kaypova Gulnara Muratbaevna</i>	
Umumta'lim maktablarida tabiiy-ilmiy savodxonlik ko'nikmalarining rivojlantirish masalalari	257
<i>Davletova Hamida Xasan qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy axloqiy ruhda tarbiyalashning psixologik jihatlari	261
<i>Fayzullayev Ermat Majidovich, Ortiqova Mashxura</i>	
Orkestr va ansamblarning fan sifatidagi o'rni va tarbiyaviy ahamiyati	265
<i>Fayzullayev Ermat Majidovich</i>	
Maktab fizika darslarida interaktiv dasturlar va simulyatorlardan foydalanish metodikasi	269
<i>Xayriddinova Malikaxon Qodirxon qizi</i>	



Musiqada midi musiqiy cholg'ularning raqamli interfeysi.....	274
<i>Omonov Xasanxon Sulaymonovich</i>	
Karyera o'sishida gender tafovutlarning ahamiyati.....	277
<i>Yulchiboyeva Nazokatxon Iqboljon qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar	283
<i>Omonov Xasanxon Sulaymonovich, Normuradova Nafisa Kuchkarovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tarbiyasi – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida	287
<i>Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Marjona Atoyeva Ismat qizi</i>	
Ilk yoshdagi bolalar psixologiyasi va rivojlanish xususiyatlari.....	291
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatovna, Ne'matjonova Gulzira Ne'matjon qizi</i>	
Jadid pedagogik tafakkurida "o'qituvchi" fenomeni.....	294
<i>Xushbokov Oybek Uralovich</i>	
Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida savol berish malakalarini shakllantirish	296
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i>	
Musiqiy ta'limda xalq va zamonaviy qo'shiqlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning etnomadaniy komponentlarni shakllantirish	298
<i>Qurbanova Muslima Shavkatbek qizi</i>	
Umumta'lim maktablari o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini tarkib toptirish metodikasi (biologiya fani misolida).....	300
<i>Akmalova Farida Dilmurod qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda adaptiv ta'lim texnologiyalari yordamida bolalar ijodkorlik ko'nikmasini shakllantirish mazmuni.....	304
<i>To'xliboyeva Zuxra Abdumutal qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi iqtidorli bolalar bilan ishlashda ta'lim texnologiyasi	308
<i>Xudoyberdiyeva Durdona Baxodir qizi</i>	
Pedagogik-psixologik qarashlarda otaning oiladagi o'zni haqidagi tasavvurlarni shakllantirish dinamikasiga oid fikrlar talqini.....	311
<i>Karshiyeva Dilafuz Suyunovna, Maxamatova Munisa Mamirzo qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishning nazariy va amaliy asoslari	314
<i>Axmatqulova Maxfuza Shuhrat qizi</i>	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda interpersonal intellekt ko'nikmalarini rivojlantirish ...	318
<i>G'ulomova Oychehra No'monjon qizi</i>	
Etnomadaniy qadriyatlarni integratsiyalashgan ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarga singdirishning samarali yo'llari.....	321
<i>G'ulomxo'jayeva Mushtariy Elmurod qizi</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida grafik organayzerlardan foydalanish	324
<i>Iroda Isroilova</i>	
Buxoro iqlimi va tabiiy resurslaridan samarali foydalanish: ekologik va fizik-geografik yondashuv	329
<i>Mardonova Saodat Muzaffarovna</i>	
Effective Traditional and Innovative Approaches in English Language Teaching: Evidence From EFL Classrooms	333
<i>Yuldoshev Khaydarbek</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini rivojlantirishda lingvopedagogik yondashuvning nazariy-metodologik asoslari.....	336
<i>Allayarova Sojida Umirzakovna</i>	
Механизмы использования цифровых педагогических технологий для обеспечения непрерывности образовательного процесса учащихся начальных классов в условиях длительного лечения	339
<i>Турсунова Д. З., Холлиева Н. Х.</i>	



UMUMTA'LIM MAKTEBLARIDA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIK KO'NIKMALARINING RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Davletova Hamida Xasan qizi

Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodisti

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishning hozirgi holati ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Xalqaro baholash dasturlari natijalari, milliy ta'lim siyosatidagi islohotlar hamda amaldagi o'quv jarayonining metodik xususiyatlari asosida mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tabiiy-ilmiy savodxonlik, kompetensiyaviy yondashuv, umumta'lim maktabi, interfaol metodlar, ta'lim sifati.

Abstract: This article analyzes the current state of developing natural science literacy skills among students in general secondary schools from a scientific and pedagogical perspective. Based on the results of international assessment programs, reforms in national education policy, and the methodological characteristics of the existing instructional process, key challenges and promising directions for development are identified. The research findings highlight the necessity of strengthening the competency-based approach in the teaching of natural science subjects.

Key words: natural science literacy, competency-based approach, general secondary school, interactive methods, quality of education.

Аннотация: В данной статье с научно-педагогической точки зрения анализируется современное состояние развития навыков естественно-научной грамотности у учащихся общеобразовательных школ. На основе результатов международных оценочных программ, реформ в национальной образовательной политике, а также методических особенностей действующего учебного процесса выявляются существующие проблемы и перспективные направления развития. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости усиления компетентностного подхода в преподавании естественно-научных дисциплин.

Ключевые слова: естественно-научная грамотность, компетентностный подход, общеобразовательная школа, интерактивные методы, качество образования.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonlari va ilmiy-texnologik taraqqiyot sharoitida jamiyatning barqaror rivojlantirish inson kapitalining sifati, xususan, shaxsning ilmiy tafakkuri, tahliliy fikrlash qobiliyati hamda dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish kompetensiyalari bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar sharoitida fan va texnologiyalar yutuqlaridan ongli va samarali foydalanish, tabiiy hodisalar mohiyatini tushunish hamda ilmiy axborotni tanqidiy baholay olish ko'nikmalari har bir shaxs uchun zarur bo'lgan universal kompetensiyalarga aylanmoqda.

Shu nuqtai nazardan, umumta'lim maktablarida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Tabiiy-ilmiy savodxonlik faqatgina tabiiy fanlarga oid nazariy bilimlar majmuasi bilan cheklanmay, balki o'quvchilarning ilmiy tushunchalarni kundalik hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish, muammolarni ilmiy asosda tahlil qilish, dalillarga tayangan holda xulosalar chiqarish va qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini ham qamrab oladi. Mazkur ko'nikmalar shaxsning intellektual rivojlanishida hamda uning jamiyat hayotida faol ishtirok etishida muhim omil hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikning yetarli darajada shakllanmaganligi bilimlarning fragmentar bo'lishi, ularni amaliy faoliyatda qo'llashda qiyinchiliklar yuzaga kelishi hamda ilmiy mantiqiy fikrlashning sust rivojlanishiga olib keladi. Ayniqsa, tabiiy fanlarni o'qitishda mazmun markazli va reproduktiv yondashuvlarning ustuvorligi o'quvchilarning tadqiqot olib borish, tajriba o'tkazish va muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda.

Shu bilan birga, ta'lim sifatini xalqaro mezonlar asosida baholashga qaratilgan yondashuvlar umumta'lim maktablarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish masalasini yanada dolzarb qilib qo'ymoqda. Ushbu jarayon o'quv dasturlari, o'qitish metodlari va baholash tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Chunki zamonaviy ta'limdan kutilayotgan natija o'quvchilarning faqat bilimlarni egallashi emas, balki ularni real hayotiy muammolarni hal etishda samarali qo'llay olish layoqatini shakllantirishdan iboratdir.

Shu sababli, umumta'lim maktablarida tabiiy-ilmiy savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishning hozirgi holatini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy-ilmiy savodxonlik tushunchasining pedagogik mazmuni

Ilmiy adabiyotlarda tabiiy-ilmiy savodxonlik shaxsning tabiiy hodisalar va jarayonlarni ilmiy asosda tushunishi, ularning mohiyatini anglay olishi, ilmiy dalillarni tanqidiy tahlil qilishi hamda ushbu bilim va dalillarni real hayotiy muammolarni hal etishda ongli ravishda qo'llay olish qobiliyati sifatida talqin etiladi¹. Ushbu tushuncha o'quvchining faqat tayyor bilimlarni egallash darajasini emas, balki ilmiy fikrlash usullarini o'zlashtirishini, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashini hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish layoqatini qamrab oladi.

Tabiiy-ilmiy savodxonlikning shakllanishi murakkab va ko'p komponentli jarayon bo'lib, u kognitiv (ilmiy bilimlar va tushunchalar), amaliy (tajriba o'tkazish, muammoli vaziyatlarni hal etish, ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanish) hamda refleksiv (o'z faoliyatini baholash, ilmiy xulosalarning asoslanganligini tahlil qilish) komponentlarning uzviy integratsiyasi asosida yuzaga keladi². Mazkur komponentlar o'zaro uyg'un holda rivojlangandagina o'quvchida funksional tabiiy-ilmiy savodxonlik shakllanadi.

Shu bois tabiiy fanlarni o'qitishda faqat faktologik bilimlarni yetkazish, ya'ni ta'riflar, formulalar va qonuniyatlarni yod oldirish bilan cheklanib qolish o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni to'laqonli rivojlantira olmaydi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday yondashuv bilimlarning fragmentar shakllanishiga, ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashda qiyinchiliklar yuzaga kelishiga hamda ilmiy-mantiqiy fikrlashning yetarli darajada rivojlanmasligiga olib keladi.³

Aksincha, o'quvchilarning faol bilish faoliyatiga asoslangan, tajriba, kuzatish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va tadqiqot elementlarini o'z ichiga olgan o'qitish metodlari tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bunday yondashuv o'quvchilarda ilmiy bilimlarning hayotiy ahamiyatini anglash, ularni real muammolar bilan bog'lash hamda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xalqaro baholash natijalari va ularning tahlili. Xalqaro baholash tadqiqotlari, xususan, OECD tomonidan amalga oshiriladigan PISA dasturi natijalari umumta'lim maktablari o'quvchilarining ilmiy tushunchalarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligini yaqqol ko'rsatib bermoqda. Jumladan, PISA 2018 tadqiqoti natijalariga ko'ra, ishtirokchi mamlakatlar bo'yicha o'quvchilarning o'rtacha 22–25 foizigina ilmiy muammolarni tahlil qilish, ilmiy dalillar asosida xulosa chiqarish va ularni amaliy vaziyatlarda qo'llashni talab etuvchi yuqori darajadagi topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajara olgan⁴.

Mazkur tadqiqot doirasida o'quvchilarning qariyb 50 foizdan ortig'i ilmiy faktlarni eslab qolishga yo'naltirilgan oddiy topshiriqlarni bajarishga qodir bo'lgan bo'lsa-da, ilmiy mantiqiy fikrlash, dalil keltirish va qarama-qarshi nuqtai nazarlarni baholashni talab qiluvchi vaziyatlarda sezilarli qiyinchiliklarga duch kelgani aniqlangan. Bu holat o'quvchilarning bilimlari ko'proq reproduktiv xarakterga ega ekanligini va funksional tabiiy-ilmiy savodxonlik yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi.

1 Bybee R. W. The Case for STEM Education. NSTA Press, 2013.

2 OECD. PISA 2018 Results: What Students Know and Can Do. Paris, 2019.

3 Millar R. Teaching Scientific Literacy. Routledge, 2014.

4 OECD. PISA 2018 Results: What Students Know and Can Do. Paris: OECD Publishing, 2019.



Shuningdek, TIMSS xalqaro tadqiqoti natijalari ham mazkur xulosalarni tasdiqlaydi. TIMSS baholashlari tahliliga ko'ra, o'quvchilarning aksariyati nazariy bilimlarni qayta tiklashga qaratilgan savollarda nisbatan yuqori natijalarga erishgan bo'lsa-da, tajribaga asoslangan, muammoli vaziyatlarni hal etishga yo'naltirilgan topshiriqlarda past ko'rsatkichlarni namoyon etgan⁵. Bu esa tabiiy fanlarni o'qitishda amaliy va tadqiqot faoliyatiga yetarli e'tibor qaratilmayotganidan dalolat beradi.

Xalqaro baholash natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda ilmiy tushunchalarni real hayot bilan bog'lash, ilmiy dalillarni tahlil qilish va asoslangan xulosalar chiqarish ko'nikmalarining sust rivojlanishi, avvalo, o'qitish jarayonida faol bilish faoliyatiga asoslangan metodlarning yetarli darajada qo'llanilmasligi bilan bog'liqdir. An'anaviy, mazmun markazli va ma'ruza uslubiga asoslangan darslar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va tadqiqot olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda.

Shu bois, xalqaro baholash dasturlari natijalari tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning faol bilish jarayoniga asoslangan, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, tajriba o'tkazish va ilmiy xulosalar chiqarishga yo'naltirilgan metodlarni joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Mazkur yondashuv o'quvchilarda funksional tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umumta'lim maktablarida mavjud holat tahlili. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida tabiiy fanlar – biologiya, fizika, kimyo va geografiya fanlarini o'qitish jarayoni asosan an'anaviy, mazmun markazli yondashuvga asoslanib tashkil etilmoqda. Ushbu yondashuvda o'quv jarayonining asosiy e'tibori nazariy bilimlarni yetkazish va faktologik ma'lumotlarni yod oldirishga qaratilib, o'quvchilarning faol bilish faoliyati, mustaqil fikrlashi va ilmiy izlanish olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish ikkinchi darajaga tushib qolmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, reproduktiv o'qitish usullarining ustuvorligi o'quvchilarda ilmiy tushunchalarning fragmentar shakllanishiga olib keladi, ya'ni bilimlar alohida fakt va tushunchalar sifatida o'zlashtirilib, ularning o'zaro bog'liqligi va hayotiy ahamiyati yetarli darajada anglanmaydi⁶. Natijada o'quvchilarning ilmiy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash, muammoli holatlarni tahlil qilish va asoslangan xulosalar chiqarish ko'nikmalari sust rivojlanadi.

Mazkur holat O'zbekiston ta'lim tizimi kontekstida ham dolzarb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida shaxsning intellektual salohiyatini, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish belgilangan⁷ bo'lsa-da, amaliyotda mazkur talablar tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida to'liq ta'minlanmayapti. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"⁸gi PF-5712-son Farmonida o'quvchilarda funksional savodxonlik va kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Biroq amaldagi dars jarayonlarida fanlararo integratsiya va hayotiy kontekstga asoslangan topshiriqlarning yetarli emasligi tabiiy-ilmiy savodxonlikning funksional xarakterini cheklab qo'ymoqda.

O'quv dasturlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, tabiiy hodisalar ko'pincha alohida fanlar doirasida, o'zaro integratsiyasiz o'rganiladi. Bu esa o'quvchilarning tabiat hodisalarini kompleks va tizimli idrok etishiga to'sqinlik qiladi⁹. Kundalik hayot bilan bevosita bog'langan, muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarning kamligi o'quvchilarda ilmiy bilimlarning amaliy ahamiyatini anglash motivatsiyasini pasaytiradi.

Mavjud holatni belgilovchi muhim omillardan yana biri o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi bilan bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning aksariyatida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, tadqiqotga yo'naltirilgan o'qitish metodlari hamda xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) talablariga mos metodik kompetensiyalar yetarli darajada shakllanmagan. Bu holat dars jarayonida muammoli o'qitish, tajriba va loyiha faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatlarini cheklaydi. Bundan tashqari, baholash tizimida ham asosan bilimlarni qayta tiklashga yo'naltirilgan yondashuv ustunlik qilmoqda. O'quvchilarning ilmiy mantiqiy fikrlashi, dalil keltirish va bilimlarni real vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari yetarli darajada baholanmaydi. Natijada ta'lim jarayonida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat ikkinchi darajali vazifaga aylanib qolmoqda.

Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitish amaliyotida O'zbekiston ta'lim tizimida belgilangan talablar hamda xalqaro baholash mezonlari bilan uyg'unlikni yanada kuchaytirish imkoniyatlari mavjud. Mazkur holat ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida bosqichma-bosqich takomillashtirish, o'qitish metodlarini o'quvchilarning faol bilish va tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish, shuningdek, baholash tizimini funksional savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar bilan boyitish zaruratini anglatadi.

5 Mullis I. V. S., Martin M. O., Foy P., Hooper M. TIMSS 2019 International Results in Science. Boston College, 2020.

6 Holbrook J., Rannikmae M. The Meaning of Scientific Literacy. International Journal of Environmental & Science Education, 2009.

7 O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2020.

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "2030-yilgacha Xalq ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi". – 2019.

9 UNESCO. Education for Sustainable Development Goals. Paris, 2017



TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish jarayoni qator tizimli muammolar bilan tavsiflanadi. Avvalo, o'quv jarayonida reproduktiv o'qitish usullarining ustuvorligi saqlanib qolmoqda. Bunda o'quvchilar ko'proq tayyor bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiriladi, ilmiy muammolarni mustaqil tahlil qilish va yechim topish ko'nikmalari esa ikkinchi darajaga tushib qoladi. Shuningdek, amaliy va tadqiqotga yo'naltirilgan topshiriqlarning yetishmasligi o'quvchilarda ilmiy bilimlarning hayotiy ahamiyatini anglashni cheklab qo'ymoqda. Tajriba, kuzatish va muammoli vaziyatlarni hal etishga asoslangan faoliyatning kamligi tabiiy-ilmiy savodxonlikning funksional xarakterini to'laqonli shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda. O'qituvchilarning metodik tayyorgarligi arajasining bir xil emasligi ham muhim muammo bo'lib, bu holat dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, baholash tizimida kompetensiyaviy mezonlarning yetarli darajada aks etmasligi o'quvchilarning ilmiy mantiqiy fikrlash, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish va bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini baholash imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda. Natijada ta'lim jarayonida bilim natijalari bilan bir qatorda ko'nikma va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat yetarlicha rag'batlantirilmayapti.

Kelgusida mazkur muammolarni bartaraf etish uchun umumta'lim maktablarida ta'lim jarayonini kompetensiyaviy va tadqiqotga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida tashkil etish, o'quvchilarning ilmiy faoliyatini faollashtiruvchi interfaol metodlardan keng foydalanish hamda baholash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishning barqaror va tizimli yo'nalishini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablarida tabiiy-ilmiy savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish hozirgi kunda dolzarb pedagogik muammo bo'lib qolmoqda. Mavjud holat tahlili ta'lim mazmuni va metodikasini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning faol bilish, tahlil va tadqiqot faoliyatiga asoslangan yondashuvlarni joriy etish tabiiy-ilmiy savodxonlikni samarali rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bybee R. W. The Case for STEM Education. NSTA Press, 2013.
2. OECD. PISA 2018 Results: What Students Know and Can Do. Paris, 2019.
3. Millar R. Teaching Scientific Literacy. Routledge, 2014.
4. Mullis I. V. S., Martin M. O., Foy P., Hooper M. TIMSS 2019 International Results in Science. Boston College, 2020.
5. Holbrook J., Rannikmae M. The Meaning of Scientific Literacy. International Journal of Environmental & Science Education, 2009.
6. O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2020.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "2030-yilgacha Xalq ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi". – 2019.
8. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals. Paris, 2017

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.